

## G‘OZG‘ON SHAHRI TOPONIMIK BIRLIGINING GEOGRAFIK AHAMIYATI

**Sobirova Munisa Toyir qizi**

*Navoiy davlat universiteti o‘qituvchisi*

**Annotatsiya:** Maqolada G‘ozg‘on shahri toponimikasi asoslangan bo‘lib, uning manbalardagi bayoni aks ettirilgan. Shuningdek, shaharning madaniy-tarixiy xususiyatlariga ham ahamiyat qaratilgan.

**Kalit so‘zlar:** G‘ozg‘on, g‘oziy, G‘ozg‘onnoma, shahar, G‘ozion, marmar, geografik joylar lug‘ati, hudud, Nurota, resurs.

## ГЕОГРАФИЧЕСКОЕ ЗНАЧЕНИЕ ТОПОНИМНОЙ ЕДИНИЦЫ ГОРОДА ГАЗГАН

**Собирова Муниса Тойир кызы**

*Преподаватель Навоийского государственного университета*

**Аннотация:** Статья основана на топонимии города Газган, отражающей его описание в источниках. В ней также рассматриваются культурные и исторические особенности города.

**Ключевые слова:** Гозган, Гозян, Гозганнома, город, Гозян, мрамор, словарь географических мест, местность, Нурота, ресурс.

## GEOGRAPHICAL SIGNIFICANCE OF THE TOPONYMIC UNIT OF THE CITY OF GAZGON

**Sobirova Munisa Toyir qizi**

*Teacher at Navoi State University*

**Abstract:** The article is based on the toponymy of the city of Ghozgan, reflecting its description in sources. It also focuses on the cultural and historical characteristics of the city.

**Keywords:** Ghazgan, Ghozian, Ghozgannoma, city, Ghozian, marble, dictionary of geographical places, area, Nurota, resource.

Har qanday yuksalishning avvalo boshlanish nuqtasi bo‘ladi. Tom ma’noda ana shu nuqtani mustahkam poydevor, deb atash mumkin. Qolgan barcha o‘zgarishlar: bosqichma-bosqich rivojlanish jarayonlari ayni ushbu

manbadan kelib chiqadi. Keng ko‘lamdagi bunday jadallikning yuzaga kelish sababi esa nafaqat iqtisodiy imkoniyatlarga, balki ma‘naviy resurslarga ham borib taqaladi.

Yangi O‘zbekistonning yangi shahri maqomini olgan G‘ozg‘on shahriga to‘xtaladigan bo‘lsak, respublikaning eng qadim go‘shalaridan biri bo‘lgan va marmar konlariga boy mazkur hududdagi bugungi o‘zgarishlar zamiri ham ana shunday omillar bilan chambarchas bog‘liq.

Darhaqiqat, G‘ozg‘on shahri hududi kamalakrang marmarga boy bo‘lishi bilan bir qatorda bu yerdagi ko‘plab qoyatosh suratlari-petrofliglar, qadimiy qal‘a qoldiqlari, sug‘d madaniyati nishonalari mazkur go‘shaning boy tarixidan ham darak beradi. Mazkur asoslarni nazarda tutadigan bo‘lsak, ayni paytda G‘ozg‘ondagi tub o‘zgarishlar jarayoni o‘z-o‘zidan vujudga kelmaganligi oydinlashadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60 son “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni bilan tasdiqlangan 2022-2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning yettida ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Taraqqiyot strategiyasining “Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o‘sish sur‘atlarini ta‘minlash” yo‘nalishi asosiy hujjat bo‘lib xizmat qiladi. 2022-2026-yillarda O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning yettida ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha G‘ozg‘on shahrining iqtisodiyoti va ijtimoiy soha yo‘nalishlarini yaxshilash orqali ilk bor respublikamizning eng yosh shahari qatoridan joy olgan.

G‘ozg‘on shahri O‘zbekiston Respublikasining deyarli qoq markazida joylashgan. G‘ozg‘on shahri Nurota shahridan 10 km g‘arbda, Navoiy shahridan 90 km uzoqlikda, Qizilqum chekkasida, Nurota tog‘ tizmasining g‘arbiy etagida joylashgan. Shahar Nurota, Navbahor hamda Konimex tumanlari bilan chegaradosh. Shahar viloyatning markazida joylashgan bo‘lib, iqlimi quruq,

kontinental o'lka hisoblanadi. Shahar maydoni 0,05 ming km<sup>2</sup> (59,4 ming gektar) hamda chegara uzunligi 105,3 kilometrni tashkil qiladi.

G'ozg'on hududida XX asrning boshlarida sanoqli oilalargina istiqomat qilgan bo'lib, 30-yillarda marmar konining ochilishi, keyinchalik bu yerda aholi sonining ko'payishiga olib keldi. "G'ozg'on marmar" korxonasida Sobiq ittifoqning turli hududlaridan va hatto boshqa mamlakatlardan ham ishchilar kelib ishlab, hududda aholining to'planishiga sabab bo'lgan.

Bugungi kunda G'ozg'on hududida saqlanib qolgan osori-atiqalar va tarixi minglab yillarga daxldor nishonalar mazkur go'shaning shonli tarixidan so'ylasada, ushbu manzilning qadim o'tmishi bilan bog'liq sir-sinoatlar haligacha to'liq tadqiq qilinmagan. Bir qator olimlar tomonidan bu boradagi ishlarga kirishilgan bo'lsada, ammo turli sabablarga ko'ra bu izlanishlar to'liq yakunlanmagan.

Eski tarixchi allomalar ham o'z asarlarida Nurota zamini, xususan bu yerda yashagan ilm ahli hayotiga e'tibor qaratgan bo'lsada, mazkur manbalarda G'ozg'on borasidagi alohida qaydlar uchramaydi. Xususan, X asrda yashagan Narshaxiy o'zining "Buxoro tarixi" kitobida "Nur katta joy. Unda masjidi jome bor. U ko'pgina rabotlarga ega. Buxoro va boshqa joylarning odamlari har yili ziyorat uchun u yerga boradilar. Buxoro aholisi bu ishda ko'p mubolag'a qiladilar. Nur ziyoratiga brogan kishi haj qilgan (kishining) fazilatiga ega bo'ladi; u ziyoratdan qaytib kelganida tabarruk joydan kelganligi sababli shaharni havoza band qilib bezatadilar. Bu Nurni boshqa viloyatlarda Nuri Buxoro, deb ataydilar. Tobeinlardan ko'p kishilar u yerga dafn etilganlar."<sup>1</sup>, deya qayd etgan. Bu yerda "U ko'pgina rabotlarga ega", deyilganda G'ozg'on ham nazarda tutilgan bo'lsa, ajab emas. Biroq, G'ozg'onda o'sha davrlarda ham aholi zich yashaganligi hamda mazkur aholi punkti muhim savdo-sotiq nuqtasi bo'lganligini e'tiborga olsak, ko'hna tarixchilar mazkur go'shaning ahamiyatiga to'la e'tibor qaratishmagan, degan xulosaga kelish mumkin.

<sup>1</sup> Narshaxiy. Buxoro tarixi.-T.: "Fan". 199-bet.

G'ozg'on tarixiga oid qiziqishlar o'tgan asrning 50-60 yillaridan boshlanib, bu yerga bir necha bor arxeolog olimlar tomonidan qazishma ishlari ham amalga oshirilgan. O'zbekiston mustaqillikka erishganidan so'ng, hududlar tarixini ro'yobga chiqarish ishlariga alohida e'tibor qaratildi. Shundan so'ng, bir qator navoiylik, nurotalik va g'ozg'onlik ilm ahli tomonidan G'ozg'on geografiyasini o'rganishga jadal kirishildi.

Bugungacha G'ozg'on hududi bilan bog'liq eng muhim manba R.Asadovning "G'ozg'onnomasi"<sup>2</sup> asari sanaladi. Mazkur asar garchi to'la ilmiy risola sanalmasada, u to'laligicha G'ozg'on o'tmishiga bag'ishlangan yagona nashr hisoblanadi. Bundan tashqari, Istam Bobonazarovning "Shohimardon tarixi"<sup>3</sup> risolasi ham G'ozg'onda joylashgan qadimiy masjid tarixiga bag'ishlangan asardir. Bundan tashqari, professor Dodo Nozilovning "Usta ustalar haqida dilkash qissalar"<sup>4</sup>, "O'rta Osiyo me'morchiligida odatlar, qoidalar va ramziy ifodalar"<sup>5</sup> kabi va boshqa asarlarida, P.Zohidovning "Me'morlar olami"<sup>6</sup> kitobida, Nurotalik o'lkashunos Suyundik Mustafo Nurotoiyning bir qator asarlarida, X.Qurbonov va boshqalar muallifligidagi "Nurota tumani: kecha va bugun"<sup>7</sup> kitobida, bir so'z bilan aytganda Nurota hamda Karmana tarixiga oid bir qancha asarlarda G'ozg'onga oid qisman ma'lumotlar berilgan.

"G'ozg'on" toponimining ma'nolari yuzasidan bir qancha taxminlar mavjud. Shularning eng mashhuri – "g'oziy" "jangda o'lgan", "shahid bo'lgan (arabcha) jangchi" va tojikcha – "on" (-lar) ko'plik ko'rsatkichi birikishidan –"G'ozion" shaklida shakllangan va keyinchalik aytilishiga qulay bo'lishi uchun "G'ozg'on" shaklini olgan.

---

<sup>2</sup> Asadov R. G'ozg'onnomasi. –T.: "Navro'z". 2003.

<sup>3</sup> Bobonazarov I. Shohimardon tarixi.-Navoiy. Alisher Navoiy nomli nashriyot. 2017.

<sup>4</sup> Nozilov D. Usta ustalar haqida dilkash qissalar.-T.: "San'at" jurnali nashriyoti. 2008.

<sup>5</sup> Nozilov D. O'rta Osiyo me'morchiligida odatlar, qoidalar va ramziy ifodalar.-T.: "San'at" jurnali nashriyoti. 2011.


<sup>6</sup> Zohidov P. Me'morlar olami. –T.: Qomuslar bosh tahririyati. 1996.

<sup>7</sup> Qurbonov X. va boshqalar. Nurota tumani: kecha va bugun.- T.: "SAHHOF". 2021.

Mahmud Koshgʻariyning yozishicha,<sup>8</sup> “Gʻozgʻon”- “oʻnqir-choʻnqir yer”, degan maʼnoni anglatib, uy-joy qurish, ekin ekishga yaramaydigan joylarga nisbatan ishlatilgan soʻz hisoblangan.

Ayrim mahalliy otaxonlar “Gʻozgʻon” toponimining kelib chiqishini shunday izohlaydilar: Chingizxon Nurni zabt etadi. Oʻshanda xonning Gʻozixon ismli begi shu qishloqda qolib hukmronlik qiladi va shu yerda vafot etadi. Keyinchalik qishloq “Gʻozixon” nomi bilan atala boshlanadi. Mahalliy aholining toponim haqida yana bir fikri bor. Palaxmonga qoʻyib otiladigan tosh “gʻazbon”, deb atalgan. Yuqoridagi “gʻazbon” atamasi toʻgʻriga oʻxshab tuyuladi. Chunki Gʻozgʻon yaqinidagi soylardan biri ham “Gʻayrut”, deb ataladi va bu ikki atamaning oʻzagida bir xillik mavjud.

Oʻzbekistonda geografik joylar lugʻatida esa Gʻozgʻonga boshqacha taʼrif beriladi: Gʻozgʻon – aslida turkiy soʻz boʻlib, “qozgʻon” (“qoz kon”) soʻzining buzilgan shakli, chunki qadimdan bu yerdan bebaho marmar tosh qazib chiqarilib, xalqi sangtaroshlik bilan shugʻullangan, degan taxmin ham mavjud. Yana bir taxmin shuki, Gʻozgʻon atrofidagi koriz, qishloq va aholi yashash joylari, choʻpon otarlari ham forsiy ham turkiy nomlar bilan atalgan.



**1-rasm. Gʻozgʻon shahridagi marmar korxonasi**

<sup>8</sup> M.Koshgʻariy. “Devoni lugʻotit turk”. I-III tom. –T. “FAN”. 1960; 1961;1963.

Masalan, Parg‘at-farg‘at, koriz-kax rez, Pashshot, Chiltan, kuxir ravuq, Besh bug‘doy, Yonbosh, Hindikush, Paxsa, Paxol, Navro‘z, Sultonboy, Dushoxa, Chorxona, Shamolquduq, Korizi kalon, Bo‘shang, Xo‘jakorson, oq burgut, Dilshod, Kurka So‘xta, Shahid, Kuhisiyo, Qoraqarg‘a, Tumar, Changli, Olchin, Quduqcha, Uzunquduq, Esankura, Turdiboy kura, Qumcha, Arba, Kamarqo‘ton, Qo‘toni gum-gum, Ikrom dula, Dushocha, So‘xta, Barot, Quduqu, Momarahim, Sultonboy, Jumaboy quduq va h.k. G‘ozg‘onda shuningdek, arabcha toponimlar ham uchraydi. Bulardan biri “Arba” dovon yo‘lidir. Bu atama arabchada “darvoza”, “o‘lchov birligi” ma‘nolarini bildiradi.

Shunday qilib, G‘ozg‘on shahrining toponimik birligi asoslangan manbalar orqali tahlil qilinib, aniqlashtirilgan. Xususan joy nomining orografik xususiyati aniqlanib, geografik jihatlariga e‘tibor qaratilgan. Bu esa toponimik birliklarning geografik xususiyatini asoslashga xizmat qiladi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Ahmedov E.A. “O‘zbekiston shaharlari”.-T.: O‘zbekiston, 1991.
2. Asadov R. “G‘ozg‘onnoma”. –T.: NAVRO‘Z. 2003.
3. Aslanov O. “G‘ozg‘on shari: kecha va bugun”.-T.: Sahnof. 2021.
4. Bobonazarov I. Shohimardon tarixi.- Navoiy. Alisher Navoiy nomli nashriyot 2007.
5. Ismoilov M.I. va Balakina A.S. “O‘zbekiston marmari” –T.
6. Narshaxiy. “Buxoro tarixi” –T.: FAN. 199-bet
7. Худойбердиева, И. А., & Утаева, Р. О. (2024). КЛАССИФИКАЦИЯ СЕЛЬСКОХОЗЯЙСТВЕННЫХ ОТРАСЛЕЙ С ЭКОНОМИКО-ГЕОГРАФИЧЕСКОЙ ТОЧКИ ЗРЕНИЯ (НА ПРИМЕРЕ ЖИВОТНОВОДСТВА НАВОИЙСКОЙ ОБЛАСТИ). Экономика и социум, (12-1 (127)), 1155-1161.
8. Latipov, N. (2022). Shaharlar va ularning ekologik muhit bilan bog‘liqligi. Scienceweb academic papers collection.

9. Latipov, N. F. (2024). THE PROCESS OF URBANIZATION AND ITS CORRELATION WITH THE ECOLOGICAL CIRCUMSTANCE. *Science and innovation*, 3(Special Issue 4), 343-352.
10. Xudoyberdiyeva I.A., & Ahmatova S.N. (2024). ECONOMIC GEOGRAPHICAL DESCRIPTION OF KHARTICHI DISTRICT. *Экономика и социум*, (11-2 (126)), 516-520.
11. Mukhammedova Nazokat Jurayevna (2018). The geographical features of population mortality in Uzbekistan. *European science review*, (1-2), 35-38.
12. Sh, N. S. (2021). MIGRATORY PROCEDURES HUMAN RESOURCES IN GLOBALIZATION PROCESS. *Теория и практика современной науки*, (8 (74)), 3-5.
13. Шодиев, С. Р., Чембарисов, Э. И., & Шодиева, Г. Р. (2021). Минерализация и химический состав речных и коллекторных вод Кашкадарьинской области Республики Узбекистан. *Экономика и социум*, (2-2 (81)), 353-359.
14. Mukhammedova, N. J. (2018). HISTORICAL-SCIENTIFIC BASIS OF DEMOGRAPHIC PROCESS IN UZBEKISTAN. In *Генезис научных воззрений в контексте парадигмы устойчивого развития* (pp. 14-16).